


Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Iqlim o‘zgarishi sharoitida alternativ manbalardagi suv resurslaridan irrigatsiya va energetika maqsadlarida foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: Tog‘ va tog‘ oldi hududlarda gidrometrik kuzatuvlar olib borilmaydigan mavsumiy soylarda yomg‘ir, sel suvlaridan shakllanadigan suv resurslari hajmini aniqlashning gidrometrik taqribiy usullari takomillashtiriladi. Mavsumiy soylarda kichik suv zahiralari barpo etish mumkin bo‘lgan hududlarni geoaxborot texnologiyalari (GIS) bilan aniqlash usullari takomillashtiriladi. Mavsumiy soylarda aniqlanadigan kichik suv zahiralari qurish mumkin bo‘lgan hududlarning joylashuv (GIS) xaritalari tayyorlanadi. Barpo etiladigan kichik suv omborlarida quriladigan gidrotexnika va GES inshootlarini maqbul turi, konstruksiyalarining parametrlari asoslanadi hamda ulardan foydalanish tartiblari ishlab chiqiladi. Barpo etiladigan kichik suv omborlari suv resurslaridan irrigatsiya va energetika maqsadlarida foydalanish texnologiyasi ishlab chiqiladi. Loyiha doirasida har bir hududdagi mavsumiy soylar uchun 2 tadan jami 4 ta kichik suv omborlarini hamda ularda kichik GES larni barpo etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va xulosalar ishlab chiqiladi. Ushbu hududlarda barpo etilishi taklif etiladigan kichik suv omborlarining taxminiy umumiy hajmi 30-35,0 mln.m³ ni tashkil etadi. Natijada taxminan 1500,0 gektarga yaqin sug‘oriladigan maydonlarning suv ta‘minotini yaxshilanadi. Kichik GES larni qurish orqali har yili taxminan 15 mln.kVt soatgacha elektr energiya ishlab chiqarish imkoni yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Suv xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Suv xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma‘lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Suv xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.